



TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



TINGLAB IDROK ETISH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI"

Murodova Munisa Norqulovna

Student, SamSIFL

Annotatsiya: Mazkur maqolada tinglab tushunish qobiliyatini rivojlanirishga qaratilgan yangi metodlar tahlil qilinadi. Zamonaviy ta'lim tizimida audial qabul qilish kompetensiyasini shakllantirish va mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi, chunki bu chet tillarini o'rghanishda juda muhim. Bunda tinglab tushunish mahoratini takomillashtirish uchun turli xil audiovizual texnologiyalar, multimedia vositalari va tinglash orqali idrok etish jarayoniga ta'sir etuvchi omillar tahlil qilinib, foydali tavsiyalar beriladi. Ushbu metodlar til o'rghanuvchilar, talabalar va pedagoglar uchun foydali hisoblanadi.

Kalit so'zlar: tinglab tushunish, faol tinglash, axborotni idrok etish, diqqatni jamlash, tinglash strategiyalari, audiodan ma'lumot olish, notanish so'zlarni tushunish, intonatsiya va kontekst, muhim fikrlarni ajratib olish, Intensive vs Extensive listening

Kirish:

Bugungi kunda chet tillarini o'rghanish davr talabiga aylanib boryapti. Chet tillarini o'rghanish biz uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochadi. Shu bois, biz ushbu maqolada til o'rghanishda juda ham muhim hisoblangan "Tinglab tushunish" qobiliyatini oshirish borasida so'z yuritamiz. "Tinglab tushunish" bu 4 ta skilldan eng qiyini hisoblanadi. Bu bosqichdan yuqori ball olish uchun esa bur necha oy lab, hattoki, yillab vaqt va aql-idrok talab etiladi. Bunda bardavomlik va turli xil usullardan foydalanish yuqori samara beradi. Keling, biz ushbu maqola orqali yuqorida aytilgan metodlar haqida so'z yuritamiz.

Muhokama/Natijalar

"Create an effective study schedule"- o'rghanishni boshlashdan oldin aniq bir jadval tuzib olish muhim sanaladi. U izchillikni ta'minlaydi, mahsuldarlikni maksimal darajaga chiqaradi va individual o'rghanish afzalliklariga moslashtiradi. Yaxshi tuzilgan o'qish rejalarini faqat vaqtini samarali tashkil etishga emas, balki kutilmagan o'zgarishlar yoki muammolarga moslashish uchun moslashuvchanlikni ta'minlashga ham yordam beradi.

"Active Listening" - biror jumla yoki matnni shunchaki eshitish emas, balki uni tushunishga harakat qilish kerak. Tinglayotganda muhim so'z va iboralarga e'tibor qarating va ularni belgilab qo'yishga harakat qiling, chunki oxirida umumiyl g'oyani tushunayotganingizda, bu so'zlar sizga yordam beradi.

"Daily Listening Practice"- tinglab tushunishni oshirishga yordam beradigan samarali yo'llarsan biri — bu "Daily practice", ya'ni kunlik shug'ullanish hisoblanadi. Davomiy ravishda podkastlar, audio kitoblar va intervyyular eshitishga harakat qiling. Bu mashg'ulotlar uchun har kuni ma'lum bir vaqt ajrating. O'zingizni qiziqtirgan va siz uchun sevimli bo'lgan mavzularingiz kontent toping va tinglang.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



"Working Memory"- mashhur kognitiv psixolog Alan Baddleyning fikriga ko'ra, tinglash jarayoni ishchi xotira bilan bevosita bog'liq bo'lib, eshitilgan ma'lumotni vaqtinchalik saqlash va tahlil qilishni talab qiladi. [1]

"The difference between Hearing and Listening"- John Fieldning nazariyasiga ko'ra, tinglash shunchaki passiv eshitish emas, balki ma'lumotni qayta ishslash, tanib olish va tushunish jarayonidir. [2]

"Noticing"- Richard Schmidtning "Noticing hypothesis" nazariyasiga ko'ra, til o'rganishda yangi grammatik strukturalar yoki so'zlarni o'zlashtirish uchun o'quvchi ularni ongli ravishda payqashi lozim. [3]

"Keep a Vocabulary Notebook"- biror-bir matnni tinglash jarayonida uchragan yangi so'zlarni yozib olish, ularning talaffuzini eslab qolish va sinonimlari bilan birga yod olish lug'at boyligini oshishiga yordam beradi va bu tushunish qobiliyatini sezilarli darajada oshiradi.

"Dictation"- matnni tinglab yozish jarayoni ham juda samarali. Biror audio materialni sekin eshiting va so'zma-so'z yozib boring. So'ng original matn bilan solishtirib, xatolarini toping va yana qaytadan to'g'ri variantdagisini eshiting. Bu usul talaffuz, grammatik tahlil va e'tiborni jamlash qobiliyatini rivojlantiradi.

"Intensive and Extensive Listening"- Intensive listening: Murakkab matnlarni qayta-qayta tinglash orqali til tuzilmalari va talaffuzini yaxshilaydi. Extensive listening: Uzun va tabiiy audio materiallarni tushunishga qaratilgan tinglash, bu esa umumiy til sezgirligini oshiradi.

"Intentional Listening"- maqsadli tinglashda muayyan bir ko'nikmani rivojlantirish uchun maxsus audiolar tanlash maqsadga muvofiq sanaladi. Masalan: talaffuzni yaxshilash uchun BBC News, ohangni tushunish uchun TED talks.

"Develop a Listening Habit"- barqarorlik muvaffaqiyat kaliti hisoblanadi. Har kuni tinglash uchun 30-40 daqiqa ajratsangiz, darajanggiz yanada oshib boraveradi.

Yuqorida aytib o'tilgan metodlar o'quvchilarning o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini yanada ortishiga yordam beradi. Tinglash jarayonida duch kelingan muammolarni bartaraf etishga xizmat qiladi. Har bir usul "Tinglab tushunish" ko'nikmasini oshirishda katta ahamiyatga ega. Birinchidan, yuqoridagi usullar o'quvchilarni matnlarni tez va aniq eshitishga hamda tushunishga o'rgatadi, bu esa ularning tez-tez eshitiladigan har xil aksentlar va gaplashish uslublariga moslashishni osonlashtiradi. O'quvchilar o'z ishchi xotiralarini rivojlantirish orqali tez gapirilgan so'z va gaplarni ham tushunishadi. Ikkinchidan, yuqoridagi metodlar orqali o'quvchilar matnni tinglashdan oldin mavzu bo'yicha taxminlar qilib, ularni tekshiradilar. Ushbu yondashuvlar yangi so'zlarni va iboralarni kontekstda tushunishga yordam beradi. Uchinchidan, ushbu metodlar leksik va grammatik bilimlarni mustahkamlaydi. Grammatik konstruksiyalarning real hayotda qanday ishlatalishini tushuntiradi va xabarning asosiy g'oyasini ajratib olish ko'nikmasini shakllantiradi. Shuningdek, bu metodlar nafaqat eshitish qobiliyatini, balki nutq malakasini yaxshilaydi. Tinglash orqali talaffuz va intonatsiyani yaxshilab, o'rganilgsn iboralarni





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



og'zaki nutqda ishlatishtga o'rgatadi. Ular o'quvchilarga butun hayoti davomida qo'llay oladigan chuqr bilim va barqaror ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, tinglab tushunish ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan metodlar o'quvchilarining nafaqat til bilish darajasini oshirishga, balki ularning fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga **Xulosa:**

xizmat qiladi. Ushbu yondashuvlar orqali o'quvchilar eshitilgan ma'lumotlarni tez va aniq anglash, uni tahlil qilish hamda kundalik hayotda qo'llash malakasini egallaydilar. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, samarali tinglash strategiyalarini ta'lim jarayoniga kiritish o'quvchilarining intellektual salohiyatini oshirish bilan birga, ularni muloqotga ochiq va faol o'rganuvchi shaxs sifatida shakllantirishga yordam beradi. Shu bois, ushbu metodlarning ta'lim tizimida keng qo'llanilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Baddley, A. (2003) " Working Memory and Language:An overview". Journal of Communication Disorders, 36(3), 189-208
2. Field, J.(2008). Listening in the Language Classroom. Cambridge University Press.
3. Schmidt, R.(1990) " The Role of Consciousness in Second Language Learning". Applied Linguistics, 11(2), 129-58

